

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI (G'OZI YUNUS FAOLIYATI MISOLIDA)

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi

Muhammadiyeva Zulayho Ilhom qizi +998918101151

zulayhomuhammadiyeva8@gmail.com

***Annotasiya.** Ushbu maqolada Turkistondagi jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning o'lka bo'ylab yoyilishi va G'ozi Olim Yunusov faoliyati haqida hamda uning maqolalaridagi taraqqiyparvarlik va ta'lim-tarbiya masalalari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** “Ko'mak”, taraqqiyparvarlik, “Qizil bayroq” gazetasi, Buxoro hukumati, ma'rifatparvarlik g'oyalari.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о возникновении джадидистского движения в Туркестане, его распространении по всей стране, деятельности Гази Олима Юнусова, а также проблемах прогресса и образования в его статьях.*

***Ключевые слова:** «Комак», прогрессизм, газета «Кизил Байрак», бухарское правительство, идеи просвещения.*

***Annotation.** This article talks about the emergence of the Jadidist movement in Turkestan, its spread throughout the country, the work of Ghazi Olim Yunusov, and the issues of progress and education in his articles.*

***Key words:** "Ko'mak", progressivism, "Kizil Bairak" newspaper, government of Bukhara, ideas of enlightenment.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek “Tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi”[1]. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida shakllangan Jadidchilik harakati bu o‘lkada tasodifan

shakllanib qolgan harakat bo‘lmay, balki ilmiy-ma’rifiy asoslarga ega, tarixiy manbalar va ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi va kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo‘lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ikkinchi tomondan ilg‘or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, islohotlar va milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib olgan. Bu harakatni yuzaga keltirgan yana bir omil kolonial hukumat amaldorlarining Rossiyadagi musulmonlarga bepisandlik qilishi va musulmon aholini huquqlaridan mahrum qilishi va buning natijasida mahalliy musulmon qatlamida paydo bo‘lgan xo‘rlik hissi edi. Hozirgi inson kapitali, uning kamoloti, taraqqiyoti g‘oyalari jadid mutafakkirlarning asarlaridayoq ilgari surilgan edi.

Manbaga oid adabiyotlar tahlili. G‘ozi Yunus jadid va faol jamoat arbobi sifatida XX asrning boshidagi taraqqiyparvarlik jarayonlarida faol ishtirok etdi. U jadid taraqqiyparvarlari qatorida Turkistonning azaliy va o‘z yechimini kutib yotgan muammolarini dadil ko‘tarib chiqib, xalq va hukumat e’tiborini ularga qaratishga harakat qildi. G‘ozi Yunus faoliyatini o‘rganishda XX asr manbalaridan foydalanildi. G‘ozi Yunusning Turkiston jadidlarining “Ko‘mak” tashkiloti dagi faoliyati ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida shakllangan Jadidchilik harakati bu o‘lkada tasodifan shakllanib qolgan harakat bo‘lmay, balki ilmiy-ma’rifiy asoslarga ega, tarixiy manbalar va ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi va kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo‘lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ikkinchi tomondan ilg‘or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, islohotlar va milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib olgan. Bu harakatni yuzaga keltirgan yana bir omil kolonial hukumat amaldorlarining Rossiyadagi musulmonlarga bepisandlik qilishi va musulmon aholini huquqlaridan mahrum qilishi va buning natijasida mahalliy musulmon qatlamida paydo bo‘lgan xo‘rlik hissi edi. Hozirgi inson kapitali, uning kamoloti, taraqqiyoti g‘oyalari jadid

mutafakkirlarning asarlaridayoq ilgari surilgan edi.

G‘ozi Olim Yunusov (G‘ozi Yunus, 1893 — Toshkent shahri — 1938.5.10) — tilshunos, folklorshunos olim. Turkiya untida, Anqaradagi "alAzhar" madrasasida o‘qigan (1912—1914). 1918-yil iyulda Turkiston yoshlarini milliy va ilmiy ruhda tarbiyalash maqsadida "Turk o‘chog‘i" tashkilotini tuzgan. 1920—1922 yillarda Maorif komissarligi qoshidagi ilmiy kengash til va terminologiya sho‘basida ishlagan. Shu komissarlik qoshidagi Til va terminologiya qo‘mitasida ilmiy kotib, Samarqand pedakademiyasida o‘zbek tili kafedrasida professor (1925—1930), Til va adabiyot institutida ilmiy xodim (1934—1937). Samarqand, Toshkent, Sirdaryo (Mirzacho‘l) viloyatlarida bo‘lib, xalq qo‘shiqlari, jumboqlari, maqollarini, "Alpomish" dostonining 2 qismini (50 sahifa), "Hiylakor kal", "Topqir kal", "Shum kal", "Tulki va bedana", "Tulki va tojik", "Kimlar o‘g‘ri", "O‘rinsiz tilak", "Aldangan qozi", "Yengilgan podshoh" kabi hikoyatlarni to‘plagan[2].

G‘ozi Yunus 1919-yilda "Ishtirokiyun" gazetasida adabiy muharrir vazifasida ishlaydi. Shuningdek, 1919-1920-yillarda "TurkROSTA" devoriy gazetasida tarjimon, bo‘lim mudiri, muharrir vazifalarini bajargan. 1921-yilda "Qizil bayroq" gazetasining mas‘ul muharriri, 1922-yil boshida esa "Inqilob" jurnali hay‘ati tahririyat a‘zosi etib tayinlangan. 1922-yil sentabr oyidan Samarqandda chiqarilgan "Kambag‘allar tovushi" gazetasini rivojlantirish uchun yuboriladi va uning muharriri bo‘ladi. Shu yili Samarqandda "Zarafshon" gazetasini tashkil etadi. Uning faoliyatini yo‘lga qo‘ygach, Toshkentga qaytadi. U 1923-yilda "Turkiston" gazetasida bo‘lim mudiri va mas‘ul muharriri vazifalarini bajargan. 1924-yil dekabr oyidan "Qizil O‘zbekiston" gazetasida bo‘lim mudiri vazifasida ish olib boradi. 1923-yil gazetaning muharriri Komiljon Alimov taklifi bilan "Mushtum" jurnalini tashkil etadi. Unga bosh muharrir bo‘ladi. 1927-yil 2-yanvardan O‘zbekiston davlat nashriyotida nashr bo‘limining vakili sifatida ish boshlagan. G‘ozi Yunus 1929-yil aprel-mart oylarida "Sharq haqiqati" gazetasida texnik redaktor, 1929-1936-yillarda "Qishloq xo‘jaligi turmushi" jurnalida musahhih lavozimida ishlagan. Sovet hukumatining qatag‘on siyosati kuchayib borayotgan bir davrda uning

faoliyati ham kuzatuvga olinadi. Matbuotdagi faol, jonkuyar xodimligiga qaramay 1936-yil iyun oyida sababsiz ishdan bo'shatilgan.

G'ozii Yunus maqolanavis sifatida o'z ijodini boshlagan. Matbuotda "G'ozii Yunus", "Ishchi", "Bog'bon", "Mashrab", "G'is", "G'urt", "Nis", "Shiq", "Shapoq mahzum", "Baroqxon talabasi", "Baroqxon tartaragi", "Tayoq", "Shapoq", "Shapaloq", "Otto'rva soqol", "Yo'qsul", "Oqpadar", "Cho'qmor", "Cho'qich", "Qo'rqqoq avliyo", "Sir", "Dilgir" kabi o'ttizga yaqin taxalluslarda maqolalar nashr qilgan. Uning yuzdan ortiq ijtimoiy-siyosiy, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat, teatrba bag'ishlangan maqolalari matbuotda nashr etilgan. G'ozii Yunusning "Kasalimiz va aning dorusi", "Al ulamou vorisat ul anbiyo" ("Ulamolar nabiyarning vorisidirlar") "Hurriyatmi yoki istibdod?", "Yerlilashtirish tevaragidagi lo'ttibozliklar", "Din nomidan ig'vo tarqatuvchilar", "Siyosat maydonlarida" kabi maqolalari shular jumlasidan. Shoir sifatida "Eski maktablar haqida", "Poraxo'r tilidan", "Savdogar tilidan", "Bir munofiq tilidan", "Ramazon aytguvchi tilidan" kabi ko'plab she'rlarni yaratgan. Dramaturg sifatida esa "Luqmoni hakim", "Yo'lbosar Alim", "Jaholat qurboni", "Islomiyat uyi", "Farzand duosi", "Savodsizlik balosi" "Zahhoki moron" (Zahhokning ilonlari) kabi o'ttizdan ortiq pyesalar yozgan[3].

G'ozii Yunus o'zining "Al-Ulamo varasatul anbiyo" (Ulamolar payg'ambarlarning me'rosxo'ridir) nomli maqolasida: "Islom dinining qabulina musharraf bo'lg'on va islomiyat tarbiya ila tarbiyalanmish har bir musulmon yuqoridagi hadisi sharifni janob sayyidil-a'zam va rasuli karimimizning qavli sharifi bo'lg'oniyg'a inonmishlar. Demakki, bir pok musulmon ulamo laqabi va a'losig'a yetushkan vaqtida anbiyo sifatlari ila mutassif bo'lib va anbiyolarning o'z millatlarig'a fidokorona xizmatlarinda sabot etganlari kabi vorisliqg'a yetushkanlari uchun din va millatlarig'a fidokorona xizmatlar ila isbot huquq etsalar vorisi anbiyo bo'lurlar. Ulamo laqabi va a'losig'a yetushkan zoti kiromning vorisi anbiyo bo'ldiqlarinda hech bir musulmonning shubhag'a tushurajak yer yo'qdir. Nabiyalar har birlari shaxs vohid bo'ldiqlari holda sabot va matonatlarining soyasida o'z qavmlarini ruhoniyaatg'a da'vatlari ila barobar

madaniyatg‘a targ‘iblari soyasida o‘z qavmlarini boshqa qavmlarg‘a qiyos qabul etilmas darajada yuqori ko‘tarmishdir” , deb yozadi

G‘ozi Yunusning fikricha olimlar o‘z qavmlarining har qanday sitamlariga chidam, sabr va matonat ko‘rsatib, insonlarni to‘g‘ri yo‘lga solishga qanday intilgan bo‘lsa ulamolar ham shunday namuna ko‘rsatgan holda odamlarga saodatli manzilni ko‘rsatishi lozimdir. Shuningdek, ular huddi payg‘ambarlardek faqatgina dinga emas, balki madaniyatga ham chaqirishi, odamlarni ratsional tafakkur qilishga, olamni va ijtimoiyotni mulohaza qilishga da‘vat qilishi darkor. Agar “...o‘zlari voris bo‘lganlariga inonsalar Alloh A‘zimush-shan tarafidan berilgan bir quvvat ila millatni ittifoq va nizomg‘a solub Janobi Alloh, Kalomisharif va Rasuli Akramimiz taraflaridan ularg‘a omonat qo‘yilmush vazifalarg‘a tushunib Janobi Allohg‘a mutavassil bo‘lib, millatlarig‘a lozim bo‘lg‘on xizmatlarini ado etsunlar. Diniy, milliy, madaniy va siyosiy biror habar bo‘lg‘onlarini ko‘rsatub millatning o‘ziga munosib har bir jamiyatg‘a tavnodde’ va zoyif etsunlar”. G‘ozi Yunus madrasalarni isloh etish masalasini ham boshqa aksariyat jadidlar singari amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalardan biri deb bildi. Bu to‘g‘rida uning o‘zi: “Turkistonda islohi madariys masalasi ko‘pdan beri qo‘zg‘olg‘on bo‘linsada, ma’lum qora kuchlarning (G‘ozi Yunus qora kuchlar deganda chor va bolsheviklar hukumatini nazarda tutmoqda – M.Alijonov) qarshi harakati va eskichilarning teskari tutqon yo‘llari orqasida, har bir zamon kutar lekin islohi madariys tovushina chuqurroq qabr qazilur edi. Islohi madarischilar garchi Ho‘qand va Toshkand shaharlarida bor bo‘lsa-da, eskilarning quvvati oldida chekkalarda pusib yotmoqqa majbur edilar. O‘zgarish boshlanishi bilan madrasani zamonga muvofiq isloh etishni amal qilib olg‘on kichkina guruhlarga nafas olish mumkin bo‘lib, yonlarig‘a tarafdorlar to‘plashg‘a imkoniyat hosil bo‘ldi” , deb ta’kidlaydi[4].

G‘ozi Yunusning taraqqiyparvarlikka doir g‘oyalari ayniqsa u faoliyat ko‘rsatgan “Ishchilar dunyosi” jurnalidagi maqolalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Jurnalning birinchi sonida bosilgan “Maslak va maqsad” maqolasida G‘ozi Yunus: “Maslagimiz prog‘rammasini to‘liq amalga oshirish, unda shariati

nabaviyada ustuvor turib qo‘l uchi bilan kun ko‘ruvchi faqir xalqimizni moddiy va ma‘naviy jihatlarini yaxshilamakka intilish, shu yo‘lda syezdlar, yig‘inlar tashkil etish, ish borishi bilan ishchilar uchun maktablar, dorulfununlar, qiroatxonalar, shifoxonalar va madaniy muassasalar bunyod etish, sanoatni yo‘lga qo‘yish, siyosatda chor mikroblarini surib tashlab o‘rniga turk-islom siyosati o‘rnatmoq yo‘lida jon fido etmakdir, vassalom” , deb o‘zining va davr taraqqiyparvarlarining maqsadini ochiqalaydi.

G‘ozi Yunus o‘zining “Qizil bayroq” gazetasidagi maqolalari orqali o‘zbek yoshlarining horijda tahsil olishlari lozimligini aytib, shu maqsadda tashkil etilgan “Ko‘mak” uyushmasining faoliyatiga ham butun xalqning e‘tiborini qaratishga harakat qildi. Jumladan, bu gazetaning 1922-yilgi 200-sonida bosilgan “Sharaflik ko‘mak” maqolasida, “...eski idora vaqtida ilm yo‘lida ko‘rgan to‘suqlarimiz to‘g‘risida ko‘p yozdiq, ko‘p qichqirdiq, nihoyat quruq shovqun-surondan foyda chiqmaslig‘ini tushunib amaliy suvratda ishka boshladiq”, deb qo‘llab-quvvatlaydi va keyingi yillarda o‘zbek yoshlarida uyg‘ongan “ilm yo‘lidagi yolqinliq”ni alohida e‘tirof qiladi. Shuningdek, G‘ozi Yunus ayni vaqtda yoshlarda ilmga nisbatan uyg‘ongan hisni mahkam ushlab qolgan holda oldingga harakat qilish lozimligini urg‘ulab, “Mana shu hisning o‘zbek yoshlarida uyg‘onishi o‘zbek milliyatini ilmsizlik orqasida bo‘ynig‘a o‘ralg‘on zanjirdan qutqaza...” olishligiga ishonadi[5]. G‘ozi Yunus “Ko‘mak” uyushmasining faoliyatiga baho berib: “Ko‘mak” uyushmasi a‘zolari bu to‘g‘rida charchamasdan ishlab turadirlar. Bular hukumatdan ko‘mak kutib o‘lturmasdan, ionalar to‘plab ishka boshladi. “Ko‘mak” uyushmasi iona to‘plash bilan ishning yaxshi samaralik chiqmaslig‘ini ko‘zda tutib hukumatimizdan ko‘mak so‘rab tegishlik o‘runlarga murojaat qildi. Shuning bilan barobar qo‘shni jumhuriyatlarga ham ko‘mak so‘rab murojaat qilg‘on edi. Bu murojaatga birinchi quchoqni Buxoro hukumati ochdi. Buxoro hukumati “Ko‘mak” uyushmasi a‘zolaridan ikki kishini o‘z masorifi bilan chet ellarda o‘qutishni o‘z ustiga oldi. Eshitishimizga qarag‘onda Buxoro hukumati Turkistondan yana ikki o‘quvchi yuborishni o‘z ustiga olg‘on. Har holda Buxoro hukumatining bir qarindoshliq muruvvatini butun Turkiston xalqi

esidan chiqormaydur”, deb ta’kidlaydi[6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, G‘ozi Yunus talabalarning iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun: “Rossiyada o‘qig‘uvchi talabalarimiz uchun, o‘zimizdan to‘plang‘on nalog‘lardan bir miqdorini chiqarish kerak. Hamda o‘zimizning milliy boylig‘imiz bo‘lg‘on vaqflarning yillik daromadidan bir qismini ajratib, Rossiyada o‘qig‘uvchi talabalarimizni ovqat, kiyim va o‘qush qurollari bilan ta‘min etishimiz kerak. Bundan boshqa hech chora yo‘qdir”, deb yechim taklif qiladi. Xullas G‘ozi Yunus jadid va faol jamoat arbobi sifatida XX asrning boshidagi taraqqiyparvarlik jarayonlarida faol ishtirok etdi. U jadid taraqqiyparvarlari qatorida Turkistonning azaliy va o‘z yechimini kutib yotgan muammolarini dadil ko‘tarib chiqib, xalq va hukumat e‘tiborini ularga qaratishga harakat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://president.uz/uz/lists/view/6007> Sh.M.Mirziyoyev. Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. 06.03.2023
2. G‘ozi Yunus. Eski maktabalar haqida // Ishtirokiyun. –1919-yil 25-iyun. –№ 129
3. G‘ozi Yunus. Madrasalarimizda islohot // Turkiston. –1923-yil 6-fevral. – № 57.
4. Bahrom Irzayev. Turkiston jadidlarining ko‘mak tashkiloti. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi. 2016.
5. Ko‘makning javobi. // Turkiston. – 1923-yil 29-iyul. –№ 163.
6. Sahobidinnova, M. (2020). Qatag'on qurbonlari taqdiri (Toshkent viloyati misolida). Academic research in educational sciences, (3)